

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

AMONOV RUSTAM SAMEJONOVICH

TEXNOSFERA VA UNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по философским наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philosophical sciences**

Amonov Rustam Samejonovich

Texnosfera va uning rivojlanish qonuniyatlari 3

Амонов Рустам Самежонович

Техносфера и закономерности ее развития 23

Amonov Rustam Samejonovich

Technosphere and patterns of its development 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 47

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2019.F.02.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETI**

AMONOV RUSTAM SAMEJONOVICH

TEXNOSFERA VA UNING RIVOJLANISH QONUNIYATLARI

09.00.04 – Ijtimoiy falsafa

**FALSAFA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2024

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida
B2021.1.PhD/Fal556 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasida
(www.samdu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Yaxshilikov Jo'raboy Yaxshilikovich
falsafa fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Saidqosimov Akbar Isaxonovich
falsafa fanlari doktori, professor

Usmonov Farrux Nasirdinovich
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Navoiy davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.F.02.02 raqamli Ilmiy kengashning 2024-yil «___» _____ soatdagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24; ye-mail: rektor@samdu.uz Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti, 1-qavat, 105-xona).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15. Tel.: (8366) 235-19-38, 235-64-90; faks: (8366) 231-15-86, (8366) 235-27-24.

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.
(2024-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

Sh.Sh.Negmatova

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

X.A.Djurakulov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash kotibi,
falsafa fanlari doktori (DSc), dotsent

A.R. Samadov

Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi,
falsafa fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda odamlar tomonidan yaratilgan texnika va texnologiyalarning sintezi sifatida paydo bo'lgan texnosfera bugungi kunda jamiyat hayotining barcha jabhalarini o'z ichiga tabora keng qamrab olmoqda. Bunday texnikaviy gumbazning mazmun-mohiyati va aks ettirishi bir tarafdin insonlarning ongi va shurida yangi odatiy texnikaviy dunyoqarashning shakllanishi bo'lsa, boshqa tarafdin uni rivojlanib, shakllanib borishiga o'zining ta'sirini o'tkazib bormoqda. Shu ma'noda insoniyat texnosferaning iqtisodiyot, ekologiya, fan, siyosat, huquq, til kabi ijtimoiy soha va institutlarga ta'sir etishini e'tirof etgan holda, ularning har bir davlatdagi ma'naviy, madaniy, iqtisodiy ijtimoiy, siyosiy, huquqiy sohasini tubdan o'zgartiruvchi, kelajakda esa butun insonlarning istiqbolini belgilovchi jarayon sifatida zamonaviy qonuniyatlarini ishlab chiqish zarurati saqlanib qolinmoqda.

Jahon ilm-fanida bir qator ilmiy tadqiqot markazlari tomonidan texnosferaning ijtimoiy borliqda kelib chiqadigan ijobiy va salbiy oqibatlar har tomonlama ilmiy-amaliy jihatdan o'rganilib, bu borada fundamental tadqiqodlar olib borilmoqda. Xususan, texnikaning paydo bo'lishi, rivojlanishi, ularning taraqqiyot bosqichlari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, globallasuv sharoitida texnosferaning texnogen muhit ta'sirida shakllanish va rivojlanishining asosiy bosqichlari, ularning xususiyatlari va tabiiy tendensiyalari kabi tadqiqotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu bilan birga, texnosferaning rivojlanish qonuniyatlari mazmuni, ayniqsa uning inson ma'naviy olamini o'zgartiruvchi usul va vositalarni tadqiq qilish ilmiy jamoatchilik oldidagi dolzarb muammolardan biri bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda bugungi kunda olib borilayotgan barcha sohadagi islohotlar natijasida zamonaviy texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanish amaliyoti rivojlandi. Bugungi kunda u jamiyatning bir qancha sohalarida ta'lim, qishloq xo'jaligi, sanoat, ishlab chiqarishdagi bio va nanotexnologiyalar, maishiy xizmat ko'rsatish va eng muhimi insonlarning ijtimoiy hayotida o'z aksini topmoqda. "Dunyo miqyosida raqobat keskinlashib borayotgan hozirgi murakkab davrda mamlakatimizni ilm-fan yutuqlari, yuqori texnologiyalar asosida modernizasiya qilish va yangilash muhim vazifamizga aylandi"¹. Bu esa, albatta yangilanayotgan O'zbekistonda "Yangi texnikaviy-texnologik makon-texnosfera"ning shakllanishiga, ayni vaqtda jamiyat rivojlanishining va inson ongidagi transformatsiyalashuvning muhim omili sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bois ham uning ijtimoiy ahamiyatini o'rganish, ta'sir doirasini aniqlash, insonlarning kelgusidagi ijobiy ehtiyoj va manfaatlarini qondirish sari yo'naltirish bilan bog'liq tadqiqotlar dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020-yil 29-oktyabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2021-yil 9-sentabrdagi PF-6309-son "Respublika oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan, ilmiy-tadqiqot

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. –Тошкент: O'zbekiston, 2021. – Б. 57

faoliyati bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarni yanada qo'llab-quvvatlash to'g'risida" va 2019-yil 30-oktabrdagi PF-5863-son 2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining atrof-muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlar hamda mazkur sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Texnosfera va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini va rivojlanish qonuniyatlarini bilish, kelib chiqish tarixini o'rganish, bugundagi ahvoli va kelajakdagi istiqbollari borasida olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini quyidagi guruhlarga ajratish orqali ilmiy tasavvurga ega bo'lish maqsadga muvofiqdir.

Birinchi guruh. Xorijiy mamlakatlarning K.Yaspers¹, E.Kapp², L.M.Mamford³, E.Toffler, X.Toffler⁴, Klaus Shvab⁵ kabi olimlari tomonidan texnikaning paydo bo'lishi, rivojlanishi, ularning taraqqiyot bosqichlari, jamiyat taraqqiyotidagi o'rnini haqida ko'plab aniq va ayni vaqtda bahstlab fikrlar bildirilgan.

Ikkinchi guruh. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi mamlakatlaridan L.G. Bondaryev⁶, A.N.Kochergin⁷, V.I.Polyakov⁸, O.V.Kobyak⁹ N.V.Popkova¹⁰ kabi olimlarning asar va ilmiy maqolalarida globallashuv sharoitida texnosferaning texnogen muhit ta'sirida shakllanish va rivojlanishining asosiy bosqichlari, ularning xususiyatlari va tabiiy tendensiyalari o'rganishga e'tibor qaratilgan. Masalan, N.V. Popkova: "Texnosfera texnogen muhit sifatida ma'lum darajada o'z-o'zini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan yaxlitlikdir"¹¹, - degan fikrni bildirgan.

Uchinchi guruh. O'zbekistonlik olimlardan J.Ya.Yaxshilikov¹², N.A.Shermuhamedova¹, N.E.Muhammadiyev², G.S.Sultonova, B.O.To'rayev,

¹ Ясперс К. Введение в философию.– Минск:Прописи, 2000. – С.109.

² Капп Э. Философия машины // Роль орудия в развитии человека. - Л.: Прибой, 1925. - 192 с.,

³ Мамфорд М. Миф машины. Техника и развитие человечества.- М. : Логос, 2001. С. 408.

⁴ Тоффлер Э. Третья волна. - М, 2002. С. 345.

⁵ Шваб Клаус. Тўртинчи саноат инқиллоби.- Тошкент: Nihol. 2022. Б. 480.

⁶Бондарев⁷ Л. Г. Техногенез и техносфера // Вестник МГУ. Сер. 5. География. 1997. № 2. С. 26-30.

⁷ Кочергин А. Техносфера и общество: проблема взаимодействия // Дмитриев А.Н., Кочергин А.Н. Шансы на выживание. - М. изд-во МГУ, 1992.

⁸ Поляков В.И. Биосфера – техносфера – ноосфера (развитие идей В.И. Вернадского) // Успехи современного естествознания, 2004. № 9. С. 61-62.

⁹ Кобяк О.В., Техницизм и антитехницизм // Экономико-социологический словарь. -Минск: "Беларуская наука", 2014. С. 531.

¹⁰ Попкова Н.В.Формирование глобальной техносферы: этапы и перспективы // Век глобализации. Выпуск №2 (30). – 2019 г.

¹¹ Попкова Н. В. Формирование глобальной техносферы: этапы и перспективы Век глобализации. Выпуск № 2 (30). 2019.- С 53.

¹² Яхшиликков Ж. ва бошқалар. Муस्ताқиллик ва муҳандис-техник зиёлилар ижодий фаоллиги муаммолари. – Т. "Фан" 2001. Б.153.

J.A.Ochilov³, D.A.Muratova⁴larning tadqiqotlarida texnosfera haqida ma'lumotlar emas, balki "Texnika falsafasi"ning qonun, kategoriyalari, obykti, predmeti, maqsadi, vazifalari, metod, prinsiplari, ijtimoiy-gumanitar va texnikaviy fanlar tizimida tutgan o'rni, shu bilan birga texnikaviy bilimlarning kelib chiqishi, yuksalishi va rivojlanishining jamiyat oddiydan murakkablikka qarab borishi, faktlar bilan ko'rsatilgan.

Tadqiqot jarayonida xorij va O'zbekiston olimlarining texnika va texnologiyalarga oid qarashlari tahlili, ularda insoniyat taraqqiyotining barcha davrlaridagi o'zgarishlarning o'zaro ta'sirini asoslaganligi aniqlangan. Biroq ularda, texnosferaning paydo bo'lish sabablari, atributlari, jamiyatning yangilanish jarayonida "Yangicha texnikaviy makon – texnosfera"ning vujudga kelishi, ularning inson ongiga ta'siri darajalari alohida obyekt sifatida o'rganilmaganligi bois, ushbu dissertatsiyada mamlakatimizda texnosfera ilmining shakllanishi genezisi va uning rivojlanish qonuniyatlari tadqiq etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajariladigan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya ishi Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq CY-01-son "O'zbekistonda ijtimoiy-ma'naviy muhit barqarorligini ta'minlashning falsafiy asoslari" nomli tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi texnosferaning bugungi kunda jamiyat rivojida ta'sirini aniqlash va uning qonuniyatlarini takomillashtirish bo'yicha taklif-tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"Texnosfera" tushunchasining mohiyati, tizimli tahlil qilish orqali uning ijtimoiy xususiyatlarini ochib berish;

texnosferaning evolyutsion rivojlanish tendensiyalari va ularning amal qilish mexanizmlarini asoslash;

texnosferaning vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlarini xronologik tarzda ijtimoiy falsafiy tahlil qilish;

"Yangi texnikaviy makon–texnosfera"ni shakllantirishdagi o'rni va vazifalarini belgilab berish;

"Yangi texnikaviy makon-texnosfera"ni rivojlantirishning istiqbolli yo'llarini falsafiy jihatdan asoslab berish bo'yicha amaliy taklif-tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obykti sifatida texnosferaning rivojlanish qonuniyatlari tanlab olingan.

Tadqiqotning predmeti texnosferada yuz berayotgan voqea-hodisalarni salbiy va ijobiy oqibatlarini ilmiy asoslash bilan belgilanadi.

¹ Шермухамедова Н.А. Техника фалсафаси. – Тошкент: Университет 2017. Б. 253

² Muhammadiyev N.E, Ubaydullayev I.A. Техника va information texnologiyalar falsafasi Monografiya Namangan 2021

³ Очилов Ж. Глобал техноген цивилизациянинг шаклланиши ва ривожланиши босқичлари. Монография. – Тошкент: "Turon zamin ziyo", 2016.

⁴ Муратова Д.А. Техноген цивилизация даврида инсон онги трансформациялашувининг фалсафий таҳлили. Фалсаф фан бўйича ф.д.(PhD) диссертацияси автореферати. – Тошкент: ЎМУ 2020.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada analiz, sintez, retrospektiv tizimli tahlil, kuzatuv, tarixiylik va mantiqiylik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

texnogen sivilizatsiya ko‘rinishlaridan biri bo‘lgan sun‘iy intellektning zamonaviy texnika usullarini yaratishdagi tizimli, funksional, baholovchi mezonlari falsafaning miqdor va sifat kategoriyalari orqali ochib berilgan;

texnosferaning progressiv evolyutsiyasini belgilab beruvchi dinamizm va boshqaruvchanlikni oshirish qonuniyatlari asosan texnika tizimlarining samaradorligini oshirish va uning istiqbollarini bashorat qilishga xizmat qiluvchi xususiy qonuniyatlari ekanligi falsafiy aspektda asoslangan;

texnosfera tushunchasining kategorial mazmuni texnogen sivilizatsiya natijasida inson turmush darajasini ta‘minlovchi zamonaviy texnika vositalarini shakllantirish orqali yangi texnikaviy makonni vujudga keltirishi isbotlangan;

aksiologik va axloqiy mezoni tushunchalar asosida texnogen sivilizatsiyani texnikaviy mexanizmlari kabi shakllari jamiyatning jamoaviy-moddiy, ma‘naviy-madaniy taraqqiyot dinamikasiga konstruktiv ta‘sir etganligi mantiqiy dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

“Texnosfera”ga falsafiy kategoriya sifatida qarab, uning gnoseologik jihatlari, ontologik xususiyatlari va rivojlanish qonuniyatlarining mavjudligi, ular orqali kelib chiqqan bilimlarni inson va jamiyat rivojlanishiga ulkan hissasi ilmiy jihatdan asoslangan;

texnosferaning tabiat va ijtimoiy borliq o‘rtasidagi bufer ekanligi, unda yuz beradigan hodisa va jarayonlarning ijobiy tomoni moddiy va ma‘naviy madaniyatni uyg‘unlashtirish vositasi ekanligi, undan oqilona foydalanish, ayniqsa tabiat qonunlarining talablarini hisobga olgan holda har xil turdagi ishlab chiqarish inshootlari va shu kabilarni bunyod etishda foydalanishning muhim ahamiyatga egaligi aniqlangan;

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini amalga oshiruvchi muhandis-texnik kadrlarning yangi avlodini tayyorlab voyaga yetkazish, ularning aqli va iqtidorlilik darajasiga qarab mamlakatimizda “Yangi texnikaviy makon– texnosfera”ni shakllantirishdagi o‘rni va vazifalarini belgilash hayotiy zaruriyat ekanligi ilmiy-amaliy jihatdan ko‘rsatilgan;

texnogen sivilizatsiyani texnikaviy mexanizmlari kabi shakllari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-madaniy taraqqiyot dinamikasiga konstruktiv ta‘sir etganligi aksiologik va axloqiy mezoni tushunchalar asosida mantiqiy dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Respublika va xalqaro miqyosda o‘tkazilgan ilmiy konferensiya materiallari to‘plamlari, OAK ro‘yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati texnosfera, sun‘iy intellekt, virtual texnologiyalar va inson ongi qayta hosil bo‘lishining ijtimoiy ahamiyatini o‘rganishga oid oliy o‘quv yurtlarida Estetika, Texnika falsafasi, IT fanlarini o‘qitishda hamda davlat va nodavlat

tashkilotlarida mavzu doirasida olib boriladigan ilmiy tadqiqot ishlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati undagi taklif-tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, "Ijtimoiy fikr" jamoatchilik fikrini o'rganish markazi, fuqarolik jamiyati institutlarida, faylasuflar faoliyatida axborot texnologiyalari ta'sirida shakllangan begonalashuvni bartaraf qilish, texnika va texnologiyalardan oqilona foydalanishning zamonaviy usul va vositalarini namoyon qilishga bag'ishlangan teleko'rsatuvlarda, oliy ta'lim muassasalarida mavjud falsafiy fanlardan darsliklar, o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Texnosfera va uning rivojlanish qonuniyatlarini ochish bilan bog'liq muammolarni tadqiq etish asosida:

texnogen sivilizatsiya ko'rinishlaridan biri bo'lgan sun'iy intellektning zamonaviy texnika usullarini yaratishdagi tizimli, funksional, baholovchi mezonlari falsafaning miqdor va sifat kategoriyalari orqali ochib berilganligiga oid ilmiy-amaliy taklif-tavsiyalardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2023-yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturining "G'oya va mafkura masalasi hamda ilm-fan va ma'rifat targ'iboti" nomli III yo'nalishida belgilangan "Ijtimoiy-ma'naviy va mafkuraviy jarayonlarni tadqiq qilish texnologiyalari bo'yicha xorij tajribasini o'rganish" mavzusidagi 14-bandi ijrosini ta'minlashda hamda ma'naviy-ma'rifiy chora-tadbirlar ssenariysini ishlab chiqishda foydalanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi huzuridagi ijtimoiy-ma'naviy tadqiqotlar institutining 2023-yil 20-avgustdagi 02-22/901-son ma'lumotnomasi). Natijada, yoshlarga yangicha texnogen sivilizatsiya oqibatlari natijasida, insoniylashtirish va insonlarda sog'lom turmish tarzini ta'minlovchi texnika va texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga xizmat qilgan;

texnosferaning progressiv evolyutsiyasini belgilab beruvchi dinamizm va boshqaruvchanlikni oshirish qonuniyatlarini asosan texnika tizimlarining samaradorligini oshirish va uning istiqbollari bashorat qilishga xizmat qiluvchi xususiy qonuniyatlari ekanligiga oid taklif va tavsiyalardan Jizzax viloyati "Istiqbol" mintaqaviy tadqiqot markazi tomonidan 2020-yilda bajarilgan "Aholi huquqiy madaniyatini yuksaltirishda jamoatchilik ta'sirini oshirishning innovatsion yo'llarini joriy etish" mavzusidagi 68-11/78 raqamli amaliy grant loyihasi doirasida foydalanilgan (Jizzax viloyati "Istiqbol" mintaqaviy tadqiqot markazining 2023-yil 23-iyundagi 18-son ma'lumotnomasi). Natijada, texnosfera madaniyatning bir bo'lagi, sivilizatsiyaning darajasini ko'rsatadigan o'ziga xos madaniy hodisaligi va insonning aql-zakovatini shakllantiruvchi vosita bo'lib xizmat qilgan.

texnosfera tushunchasining kategorial mazmuni texnogen sivilizatsiya natijasida inson turmush darajasini ta'minlovchi zamonaviy texnika vositalarini shakllantirish orqali yangi texnikaviy makonni vujudga keltirishi isbotlanganligiga oid ilmiy-nazariy taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2023-2024 yillarga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturining "Yoshlar bandligi va tadbirkorligiga ko'maklashish, "Yoshlar daftari" tizimini muvofiqlashtirish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish va

raqamlashtirish, murojaatlar bilan ishlash, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning huquqiy savodxonligini oshirish yo‘nalishi” nomli III yo‘nalishdagi “Mahallalarda “Yoshlar balansi”ni shakllantirish, yoshlar to‘g‘risidagi zarur ma‘lumotlarni “Yoshlar daftari” va “Yoshlar portali” elektron platformalariga kiritib borish, ular bilan samarali ish tashkil qilish” mavzusidagi 27-bandi ijrosini ta‘minlashda hamda ma‘naviy-ma‘rifiy tadbir dasturining ssenarisini ishlab chiqishda foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining 2023-yil 20-avgustdagi 1-01-21-2337-son ma‘lumotnomasi). Natijada, mamlakatimizda yuksak ma‘naviyatli yoshlarni tarbiya sohasida amalga oshiruvchi muhandis-texnik kadrlarni tayyorlab voyaga yetkazish, ularning texnik madaniyatini, aqli va iqtidorlilik darajasini takomillashtirishga xizmat qilgan;

texnogen sivilizatsiyani texnikaviy maxanzimlari kabi shakllari jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-madaniy taraqqiyot dinamikasiga konstruktiv ta‘sir etganligi aksiologik va axloqiy mezoniy tushunchalar asosida mantiqiy dalillanganligiga oid taklif-tavsiyalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yilda efirga uzatilgan “Assalom Samarqand” dasturi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zMTRK Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2023-yil 24-avgustdagi 01-07/286-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuv dasturi ssenariysini mazmunan boyitishga hamda yoshlarga yangicha texnogen sivilizatsiya oqibatlarini ongiga singdirish, insoniylashtirish va insonlarda sog‘lom turmush tarzini ta‘minlovchi texnika va texnologiyalarning yangi avlodini yaratishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarning aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-nazariy, ilmiy-amaliy konferentsiyalardagi ma‘ruzalarda aprobatsiyadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Tadqiqot mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy ish, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta (4 ta respublika va 1 ta xorijiy jurnallarda) maqola chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, to‘qqiz paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 113 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati, muammoning o‘rganilganlik darajasi, ilmiy yangiligi asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi, obykti, predmeti, metodlari, maqsad va vazifalari aniqlangan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilingani, aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Texnosfera va uning rivojlanish qonuniyatlari tadqiqining falsafiy-metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida, “texnika” tushunchasining ijtimoiy falsafiy tahlili, ularning sintezi sifatida texnosferaning paydo bo‘lishi, shakllanishi va rivojlanishi, texnikani tabiiy

faoliyatdagi inson funksiyalari, ko'nikmalari, tajribasi va bilimlarini inkor etishning tarixiy jarayoni bo'lgan jamiyat faoliyatining sun'iy organlari tizimi sifatida keltirib o'tilgan.

Bobda, texnikalarning tez taraqqiy etishi oqibatida yaratilayotgan texnologiyalar jamiyatga o'zining ta'sirini o'tkazishi oqibatida tabiat ehsonlaridan tayyorlangan vositalarning oddiy to'plamidan iborat bo'lgan yangicha olam-texnosferaning vujudga kelishiga doir sabablari ochib berilgan. Bu esa ijtimoiy-madaniy hayot ritmlari va qadriyatlarini, hayoliy tasavvurlarini, tilni va hokazolarni o'zgartirgan holda odamzotning mushkulotini oson qilishga qaratilgan yangi yashash muhitini yaratdi.

Dessertasiyada, Texnosfera atamasi ham falsafiy jihatdan tahlil etilib beriladi. Ya'ni, "Texnosfera atamasini to'g'ri ishlatish zarur, chunki mavjudlikdagi real narsalarni talqin qilganda, garchand ular ajratilib ko'rsatilsa ham, biroq ularning bir butunlikda ekanligini unutmazlik kerak"¹. Texnosferani noosferaning bir elementi sifatida falsafiy talqin qilish ham mumkin. Shu nuqtai nazardan qaraganda texnosfera – bu:

1) hayot qatlamining inson ta'siri natijasida texnik va texnogen obyektlarga o'zgargan qismi;

2) inson zotining har qanday muhtojliklarini qondirish maqsadida texnik usullarning bilvosita va bevosita ta'siri ko'magida insonlar tarafidan o'zgartirilgan hayot qatlamining bir bo'lagi;

3) tabiat in'omidan iqtisodiy o'zaro almashinishida qatnashadigan tabiiy vositalardan foydalanish va ulardan foydalanishning amalda yopiq mintaqaviy-global texnologik tizimi, xullas tabiiy metabolizm va energiya oqimidan ishlab chiqarish davrlari sifatida tadqiqiy tahlil qilish mumkin.

Bundan kelib chiqib, birinchi o'rinda, biosferaning ajralmas bo'lagi sifatida texnosferani kiritish mumkin. Aniqrog'i, biosfera butun insoniyatning texnika bilan shug'ullanishi uchun bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatmaydigan boshqa jarayonlarni ham qamrab oladi. Lekin, hozirgi vaqtda bunday qismlar juda kam. Tabiat va jamiyat hayoti ilmiy bilimlari orqali texnogen harakatchanligiga moslashmasligi uchun kelib chiqayotgan tabiatdagi o'zgarishlarning barcha jihatlarining mazmun-mohiyatini ochib beradi.

Ikkinchi o'rinda, so'ngi texnologiyalar faqatgina moddiy materiallarning emas, balki madaniyat belgili sohasining ham tarkibiy qismi hisoblanadi. Shunday qilib, falsafiy, afsonaviy, ilmiy va boshqa belgilar orqali ham texnosfera ko'rsatib beradi.

Uchinchi o'rinda, axborot almashinuvi natijasida texnosferaning ta'rifi kelib chiqadi. Ushbu qarashni yaratishda texnosferaning zarur jihatlarini ko'rsatuvchi infosfera konsepsiyasi va axborot nazariyasi tomonidan asosiy ilmiy ishlar bilan shug'ullanadigan katta nazariya talab qiladigan axborot nazariyasi yaraldi. Bu orqali texnosfera hajmi yanada kengayib boradi.

Tadqiqotchining fikricha, odamlarning mehnat va intellektual qobiliyatini takomillashtirish va kuchaytirishga yo'naltirilgan texnik birliklar sifatida vujudga

¹ Розин В.М. От традиционной парадигмы образования – к новой // Техническая эстетика. 1990. № 6. С. 9-12.

kelgan texnosfera sekinlik bilan sun'iy yashash sharoitini paydo qiladi, balki tashqi olam bilan energiya almashinuviga olib keladigan hayotni "fiziologik" o'zaro tasir qiluvchi sistemaga olib keladi deb ta'kidlaydi. Texnosfera geosferada ham, undan tashqarida ham - kosmosda evolyutsiya uchun nazariy jihatdan cheksiz imkoniyatlarga ega. Har qanday nisbatan mustaqil tizim (quyi tizim) singari, texnosfera ichki qonunlarga va tuzilish, funksiya va rivojlanish qonunlariga tayanib o'zini rivojlantirishga qodir bo'lgan tizim hisoblanadi.

Bobda, texnosferaning ontologik tabiati, uning sun'iy tabiat borlig'i ekanligi bilan ifodalanishi izohlab beriladi. Falsafa fanida shu narsa ma'lumki, borliq haqidagi ta'limot – ontologiya deb ataladi. Borliq deb esa inson ongi va sezgisidan tashqaridagi obyektiv dunyo, olam, mavjudotlarga aytilishi borasida ham fikr yuritiladi hamda texnosfera ontologiyasiga o'zining quyidagicha tarifini ham bergan.

Texnosfera ontologiyasi – bu insoniyat tomonidan yaratilib makon va zamondan joy olgan barcha texnikaviy qurilmalar, vositalar, ishlab chiqarish texnologiyalari, texnikaviy ishlov berish natijasida hosil bo'lgan barcha sun'iy obyektlarning mavjudligi hamda ularning hayotdagi real narsa, voqelik ekanligi ko'rsatib o'tilgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, texnosfera "Sun'iy tabiat borlig'i"ga kiradi va quyidagi shakllarga namoyon bo'ladi:

1) tabiiy holatlarni o'zgarishiga olib keladigan mehnat obyektlari sifatida, ya'ni tabiatda yo'q bo'lgan va inson tarafidan umumiy ehtiyojlarini qondirish uchun yaratilgan har-xil asbob-uskunalar, qurollar va qurilmalarning guruhlarini;

2) Ayro holda ishlab chiqilgan harakat tartiblari sifatida texnik qurilmalarni yaratish, ulardan foydalanish uchun har-xil faoliyat turlari majmui (texnik vositalardan foydalanish, ilmiy-texnik ishlar, ishlab chiqarish jarayoni);

3) inson yashash sharoitining ma'lum bir turining usullari va vositalari haqida bilimlar to'plami;

4) sivilizatsiyaning tarkibiy qismi sifatida, ya'ni sivilizatsiyaning rivojlanishini ko'rsatadigan ijtimoiy jarayon sifatida;

Texnika gnoseologiyasi – bu texnika va texnologiyalarning kelib chiqishi, takomillashishi va rivojlanishini aqliy, hissiy bilimlar orqali idrok etish, ular to'g'risida malum bir bilimlarni paydo qilish jarayonlarini inikos ettiruvchi subyektiv faoliyatlar majmuyidir.

Texnosferaning ontologik tabiati barcha texnikaviy mavjudligini realligi, gnoseologik xususiyati texnik faoliyat bilan shug'ullanadigan kishilarning tabiat va jamiyat qonunlarini bilish orqali yangi texnikaviy narsalarni yaratish, texnosferaning ko'lamining kengayib borishini ta'minlamoqda.

Dessertantni ta'kidlashicha, texnikaning rivojlanish qonunlari deb, muayyan shart-sharoitda texnosferada yuzaga kelgan voqealar rivojining xarakter va yo'nalishini belgilaydigan, ma'lum bir qat'iy natijani taqozo etadigan obyektiv narsa va hodisalarning muhim, zaruriy, umumiy, nisbiy, barqaror munosabatlari tizimiga aytiladi. Bunga quyidagi qonunlarni:

1. Texnosferaning bosqichma-bosqich rivojlanishi qonuni - bu texnika tizimining moddiy obyektini qayta ishlashni amalga oshiradigan tizimlarni universal qonunidir. *Qonunning mohiyati:* texnik tizimlar ushbu asosiy

funksiyalarni bajarish orqali ajdodlardan qolgan texnikaviy merosning yangi avlodlariga ketma-ket o'tishi sodir bo'ladi. Buni olimlar 4 bosqichga bo'ladilar. Bunda *birinchi bosqich* qo'l asboblari va aqlli odamning paydo bo'lishini; *ikkinchi bosqich*, qo'l mehnatini takomillashtirish va sanoatni kuch ishlatib o'zgartirishni; *uchinchi bosqich*, foydali faoliyatni o'z- o'zidan harakatga keltirish va ilmiy-texnik inqilobini; *to'rtinchi bosqich* sanoatlashgandan keyingi jamiyatni yoki kelishilgan aql qatlamini vujudga keltirishni qamrab oladi. To'rtinchi bosqichda inson texnologik faoliyatdan har tomonlama olib tashlanadi. Inson endi yuqori ijtimoiy darajadagi rejalarni tuzish faoliyatida, hamda standart bo'lmagan asbob-uskunalarini ishlatish va ularni sozlashda faol ishtirok etadi.

2. Texnosferadagi texnik to'plamlarning bosqichma-bosqich rivojlanish qonuni - bu Texnosferaning rivojlanishining keng qamrovli qonuni hisoblanib, uning vazifasi ma'lum texnik ijrolarni amalga oshiradigan texnik birliklardagi o'lchovlar va texnik tizimlarning yangi avlodlariga o'tish, ishlatilgan texnikani yo'q qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bilan ifodalanadi.

Texnosferadagi texnik to'plamlarning bosqichma-bosqich rivojlanish qonunidan amaliy foydalanishning asosiy yo'nalishlarini: qarama-qarshiliklarni va konfliktlar topishni usullari, texnik faoliyatning tartibli tahlil qilish usullar to'plami va texnikani bosqichma-bosqich rivojlanishini o'rganish usullarini yaratish doirasida texnik birliklarning muhim bir sinfini vujudga keltirishni tashkil qiladi.

3. Taraqqiyotdagi qarama-qarshiliklar birligi va kurashi qonuni – bu texnik obyektlarning yaralishi, rivojlanishi, takomillashishi, jarayonida qarama-qarshiliklarning yaralishi, kuchayishi va yechimini aniqlash mumkinligini ifodalaydi.

4. Namunalik darajasini ko'tarish qonuni - texnik birlikning rivojlanishini uning namuna darajasiga yuksaltirish sifatida ifodalaydi.

5. Katta darajadan kichik darajaga o'tish qonuni - texnik tizimlarni rivojlantirishda materiya va turli sohalarning chuqur tuzilishidan foydalanish tendensiyasini tavsiflaydi.

6. Dinamizm va boshqaruvchanlikni oshirish qonuni - texnik tizimni insonlar tarafidan, boshqa tizimlar, tashqi tabiiy kuch va o'tish davridagi texnik tizimning talablariga ko'nikishini ta'minlab beradigan boror bir muddoani o'zgarishlarga olib keladigan qobiliyatining shakllantirish faoliyatini tavsiflaydi.

7. Texnik ko'rib chiqadigan narsalarning kamchilikdan holiligini oshirish qonuni - texnik ko'rib chiqadigan narsalar tomonidan harakatga keltirilgan texnik birliklar, tashqari ko'satilayotgan ta'sirlar yoki odamlar tomonidan ko'satilayotgan vazifalarni to'liqroq bajarish g'oyasini ifodalaydi.

8. Umumlashtirish va soddalashtirish qonuni – bajarilishi shart bo'lgan foydasi mavjud topshiriqlarning sifati va miqdorini ko'paytirish, uni vaqtida texnik tizimni murakkablashtirish va chalish orqali osonlashtirishni amalga qo'llaniladigan foydali topshiriqlarning miqdori va sifatini ko'paytirish orqali texnik birlikning idealini yuksaltirishni ifodalaydi.

9. Kelishish – kelishmovchilik qonuni - texnik elementlar to‘plamining rivojlanishini qabul qilish yoki rad etishi bilan tavsiflaydi.

Shu boisdan ham mazkur bobda XXI asrda “texnosfera” tushunchasining an’anaviy mazmuni, uning tobora ko‘proq yangi texnologiyalar, rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan yangi bilimlar bilan bog‘liq masalalar ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning “Texnosferaning vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanish bosqichlari” deb nomlangan ikkinchi bobida, tabiiy fanlar nuqtai nazaridan texnosfera tarixi bu odamlarning tabiat qonunlarini egallashlari orqali uning ehsonlarini chuqurroq o‘zlashtirish va har tomonlama tarqatishni o‘rganuvchi ilm sohasi ekanligi, hamda ijtimoiy fanlar nuqtai nazaridan esa texnosfera tarixi ijtimoiy harakatlantiruvchi kuchlar, texnika rivojlanishining ijtimoiy sharoitlari va texnikalar yaratuvchilarining ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.

Texnosfera tarixi to‘g‘risidagi sof ma’lumotlarni ishlab chiqish orqali texnika qonun va qonuniyatlari haqidagi qarashlar va nazariyalarni keltirib chiqarish mumkin. Bu ma’lumotlar texnikaga oid ilmiy yangilik qiluvchilarga texnikaning tarixini bilish va texnikani bosqichma-bosqich rivojlanishi o‘rganishda vaziyat keltirib chiqaradi. Shunday qilib, muhandislik va texnik yaratuvchilikka texnika evolyutsiyasini tahlil qilish texnosfera tarixining o‘rganish yordam beradi.

Bobda, texnosferaning rivojlanishida texnikalar doimo o‘zgarib borishi haqida ham fikr yuritiladi. Bunda, texnik sistemalar tarixiy davrda mavjud bo‘lib, narsalar kichik o‘zgarishlar bilan yangi ko‘rinishlar va modifikatsiyalarga yoki texnik sistemalarning kelajagiga o‘tishga olib keladi. Texnik tizimlarning progressiv evolyutsiyasi qonuniga muvofiq texnosfera evolyutsiyasi texnikaning shakllanishidagi bir qonunlar va qonuniyatlarga bo‘ysinadi. Texnika tarixining muhim vazifalaridan biri texnosfera evolyutsiyasini tahlil qilishga yo‘l ochadi. Texnikani shakllanishiga zarur bebaho ma’lumotlarni, yani eski avlodlardan yangi avlodlarga o‘tishdagi o‘zgarishlar to‘g‘risida mufassal ta’rif beradi.

Texnosfera evolyutsiyasini o‘rganish texnika tarixining asosiy vazifalaridan biridir. Chunki, u texnikani rivojlantirish uchun kerakli qimmatbaho materiallarni beradi.

Dessertantni ta’kidlashicha, antik davrda texnosferaning paydo bo‘lish jarayoni oddiy mehnat qurollaridan tortib og‘ir toshlarga ishlov berish uchun ularni siljitish va ko‘tarish, katta bahaybat binolarni qurish, suv chiqarish, metall eritish kabi ishlarni bajarishda qo‘llaniladigan, asosan mexanik harakatga asoslangan qurilmalarni ixtirolar hosilasi sifatida yuzaga kelganligi bilan belgilanadi. Antik davr sharqdan ilmiy-texnik bilimlarni qabul qildi, ammo ayni paytda ularni samarali rivojlantirib o‘zlarining sivilizatsiyasi doirasiga qo‘shib oldi. Antik madaniyati sharoitida nafaqat murakkab texnik, texnologik vazifalar hal qilindi, shu bilan bir qatorda ilmiy-texnik bilimlarning dastlabki elementlari paydo bo‘ldi, texnosferaning ijtimoiy borliqning bir qismi sifatida paydo bo‘lishining tamal toshini qo‘ydi. Antik davrda texnosferaning vujudga kelishining nazariy va amaliy yechimlarini topishni quyidagi misollarda ko‘rish mumkin.

G.Dils¹ o‘zining hozirgi davrda klassik asarga aylangan “Antik davr texnikasi” asarida: “Qadimgi injenerlar otish mashinalarini yaratishda ular asosiga solgan boshlang‘ich kattalik - kalibr, ya’ni to‘pni o‘qlash va otishiga yordam beruvchi elastik tarang tortilgan arqonlar harakat qiladigan kanalning diametri bo‘lgan”². “Muhandislar kalibr kattaligini aniqlash uchun topilgan $K = 1,1^3 \times 100$ formulasini nihoyatda yaxshi ekanligini tan olganlar, ya’ni, unga ko‘ra, tosh yadrosi – to‘p o‘qi (Attika minalarida) og‘irligidan topilgan kub ildizini 100 ga ko‘paytirilgan va unga olingan natijaning o‘ndan biri qo‘shilganda nechta bir soni bo‘lsa, kanal dimetrida shuncha daktil bo‘lishi kerak. Va bu boshlang‘ich o‘lchov otish mashinasining har bir qismida proporsional darajada foydalanilgan bo‘lishi kerak”³.

Bu yerda muhandislik faoliyati, aynan tabiatshunoslik tegishli bo‘lgan bilimlarga asoslangan emas, balki matematik va tajribaga oid bilimlar asos qilib olinganligi aytib o‘tilgan.

O‘rta asrlarda sodir bo‘lgan eng muhim voqea - bu Uyg‘onish –Renessans davrining vujudga kelishi, shakllanishi va rivojlanishi hisoblanadi. Uyg‘onish davri 4 bosqichga:

Birinchi bosqich XIII asrning 2-chi yarmidan —XIV asrgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan uyg‘onishdan oldingi;

Ikkinchi bosqich XV asr boshlari-XV asr oxiri bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan Erta uyg‘onish davri;

Uchinchi bosqich XV oxiri — 1500-1510 yillarni o‘z ichiga olgan yuqori uyg‘onish davri;

To‘rtinchi bosqich XVI asr o‘rtalari-1590 yillarni o‘z ichiga olgan kechki uyg‘onish davri bosqichiga bo‘lingan.

O‘rta asrlarda texnosferaning shakllanishi va rivojlanishida ikkita tendensiya: birinchidan, har qanday ilgari surilgan ilmiy g‘oyalar va kashfiyotlar “Xudo”ning irodasiga qarshi chiqish deb bilgan holda texnikaviy vositalardan foydalanishga qarshi bo‘lgan; ikkinchisi esa texnikaviy qurilmalar ilohiy asosga ega bo‘lib, ular odamlarning aql-zakovati orqali ixtiro qilinadi. Bu ixtirolar oxir-oqibatda “Xudo”ning borligini isbotlashi kerak degan fikrni ilgari surganliklari bilan ajralib turadi. O‘rta asrlar faylasuflarining qat’iy ishonchiga ko‘ra, tabiat nafaqat Xudo tomonidan yaratilgan, balki odam, uning foydasi va hayoti uchun mo‘ljallangan. Mazkur davrdan boshlab tabiat - materiallar, kuchlar, energiyalarning cheksiz rezervuari ekanligi sifatidagi tushunish shakllanib boradi, ulardan inson tabiat qonunlarini fanda tavsiflab, izohlab berish sharti bilan foydalanishi mumkin. Tabiatda doimo mavjud bo‘lgan va ayni vaqtda uni yaratgan o‘rta asrlar xudosi tabiatning tabiiy jarayonlari va uning qonunlariga transformasiya qilinadi.

¹ Герман Александр Дильс (1848 - 1922).машхур немец филологи ва антик давр тарихчи олими.

² Дильс Г. Удивительные машины древности. Техника и технологии Античности. — М.: Вече, 2018. — 240 с. Дильс Г. Античная техника / Пер. и примеч. М. Е. Сергеевко и П. П. Забаринского; Под ред. и с предисл. С. И. Ковалёва; Оформл. А. А. Толоконникова. — М.; Л.: ОНТИ; ГТТИ, 1934. — 216 с.

³ Дильс Г. Удивительные машины древности. Техника и технологии Античности. — М.: Вече, 2018. — 240 с. Дильс Г. Античная техника / Пер. и примеч. М. Е. Сергеевко и П. П. Забаринского; Под ред. и с предисл. С. И. Ковалёва; Оформл. А. А. Толоконникова. — М.; Л.: ОНТИ; ГТТИ, 1934. — 216 с.

Bobda, yangi davrga kelib texnosfera tabiat sirlarini ochish orqali qilingan buyuk kashfiyotlar, ixtirolar, ularni hayotga joriy qilish misli ko‘rilmagan darajaga yetib dunyoning ilmiy manzarasini o‘zgartirib yubordi. Uyg‘onish davrida shakllangan yangi fan va muhandislik g‘oyasini hali amaliyotda qo‘llash muammosi turadi. Anashu qo‘llashning dastlabki andozasi Galiley va Gyuygens tomonidan ishlab chiqilgan g‘oyalar ham falsafiy jihatdan tahlil etiladi. Galiley bilim doirasida real obyektning ikki tarkibiy qismga bo‘ladi (hayoliy eksperimentning prototipi): biri – ideal obyektga aniq mos keladi, o‘xshaydi, ikkinchisi – undan farq qiladi (u turli omillar – muhit, ishqalanish, jismning o‘zaro ta’siri va qiya tekislik va h.k.lar ta’sirida buzilgan ideal hatti-harakat sifatida ko‘riladi). So‘ng real obyektning ideal obyektidan farqlovchi ushbu ikkinchi tarkibiy qismi tajriba-sinovda eliminasiya qilinadi.

Galiley ijodiga Gyuygens batamom tayangan, ammo uni boshqa masala o‘ylantirardi – texnikaga oid masalalarni yechishda ilmiy bilimlarni qanday qo‘llash kerak. Haqiqatdan ham, Gyuygens asosiy tarafdin yangi – muhandislikning samaradorlik nusxasini gavdalantirgan, uning maxsus yaratilgan ilmiy bilimlarga tayangani bir tomondan bo‘lsa, yana bir tomondan— proporsiyasiga asoslanib, mavjud bilimlar yordamida obyektning parametrlari ishlab chiqilgan. Gyuygens oldida turgan injenerlik masala izoxron tarzda tebranuvchi mayatnikli, ya’ni muayyan fizik nisbatga bo‘ysunuvchi soatni konstruksiyalash zaruriyatdan iborat.

Dissertatsiyaning **“Yangilanayotgan O‘zbekistonda “Yangi texnikaviy makon-texnosfera”ni shakllantirish va rivojlantirish chora-tadbirlari”** deb nomlangan uchinchi bobida, O‘zbekistonda “Yangi texnikaviy makon – texnosferani” yaratish masalasida faqat “texnisizm-texnofobiya” doirasida emas, balkim ulardan tashqariga chiqadigan zamonaviy texnikaga ham yangi munosabatni shakllantirish, shu asosda sivilizatsion rivojlanishining boshqa, ya’ni texnogen bo‘lmagan turiga o‘tish, odamlar ongida “O‘zbekona milliy texnikaviy dunyoqarashni” shakllantirish tomon yo‘naltirish bilan bog‘liq masalalar tahlil etilgan.

Bobda, texnosfera zamonaviy texnika va texnologiyalarning yangi avlodlari paydo bo‘lishi bilan tarixiy makon va zamon o‘lchovlari ichida joylashgan azaliy o‘rnini dialektik inkor qilib, yangicha mazmun bilan boyigan holda tobora kengaytirib borishi haqida ham fikr yuritiladi. O‘zbekistonda texnosfera haqida yangicha falsafiy qarashlarda ilgari suriladigan g‘oya bu texnosferani insoniylashtirishdan iborat bo‘lmog‘i kerak. Bu vazifani o‘zbek milliy texnika falsafasi bajarishi mumkin. Aslini olganda, o‘zbek milliy texnika falsafasi, bu yangi fan sifatida texnosferaning madaniyat omili sifatidagi rolini aniqlab berishi bilan shug‘ullanib, uning qonuniyatlarini ochib berishi kerak. Buning sababi, madaniyat muammosi texnikaga oid fanlar qanchalik harakat qilsa ham yecholmaydi. Afsuski, ular texnika chegarasidan tashqariga chiqolmaydi.

Yangilanayotgan O‘zbekistonda texnosferaga nisbatan yangicha falsafiy dunyoqarashni shakllantirishning nazariy va amaliy jihatlari haqida Sh.M.Mirziyoyev: “Ilm-fanning istiqbolli va yangi yo‘nalishlarida (shu jumladan raqamli texnologiyalar, sun‘iy intellekt, robototexnika. farmatsevtika,

biotexnologiya, nanotexnologiyalar. energetika, muhandislik, elektronika, mexanika. mashinasozlik, genetika, astronomiya, dasturlash, sanoat dizayni, kriminalistikada) ilmiy-tadqiqot ishlarini jadallashtirish”¹ orqali amalga oshirish vazifalarini yukladi.

Dessertantni ta’kidlashicha, texnosfera haqidagi yangicha dunyoqarashni shakllantirishda “Texnokratik nazariya – davlatdagi iqtisodiy va siyosiy hokimiyat texnokratlar: muhandislar, menejmentlar, ishlab chiqarish tashkilotlari nazorati ostida bo’lishi kerak”², - degan qarashlardan voz kechish kerak bo’ladi. Chunki, O‘zbekistonda keyingi besh yilliklar ichida “texnokratik” qarashlar, shu asosda ish olib borishning faollashib borayotganligi ko‘zga tashlanmoqda. Yangilanayotgan O‘zbekistonda “yangi texnikaviy makon-texnosferani” shakllantirishni mamlakatimizda faoliyat yuritayotgan muhandis-texnik ziyolilarning faoliyatisiz tasavvur qilish qiyin. Zeroki, muhandislik bilan shug‘llanuvchilar ma’lum bir qurilish, mashina va texnik narsalarni yaratishda ilmiy bilimlardan foydalanish bilan bog‘liqdir. Injenerlar amalda na faqat ilmiy bilimlarni ishlatadilar, zero o‘zlari muhandislik harakatchanligida fanning yuksalishiga olib keluvchi yangi texnikaga oid va ilmiy bilimlarni yuzaga keltiradi.

